# O’ZBEKISTON

AQShning Xalqaro diniy ozodlik bo’yicha komissiyasi: 2013 yillik bayonot

## Oqibatda

Davlat tomonidan chiqarilgan qonunlar orqali Ozbekiston hukumati hali ham hamma dinlarni, ayniqsa Musulmon diniga ta’luqli bo’lgan jamoatchilikning diniy ozodliklarini targ’ib qilib kelmoqda. Rasmiy an’anaviy qabul qilingan dinga sig’inmagan shaxslarni ekstremist sifatida 5,000 dan 10,000 gacha bo’lgan Musulmonlarni qamoqlarga solgan.

O’zbekiston 1991 yil mustaqillikka erishganidan so’ng, president Islom Karimov boshchiligida doimiy va daxshatli ravishda diniy ozodlik va boshqa inson huquqlarini buzib kelmoqda. Hukumat mustaqil diniy amaliyotlarni juda qattiq jazolaydi. USCIRF O’zbekistonni alohida etiborga loyiq davlat deb aniqlashni 2013 yilda ham davomladi, yoki, CPC 1998 yilgi Xalqaro din ozodligi amaliyoti (IRFA) bo’yicha ham shunday hisoblagan. Lekin, Qo’shma Shtatlar Davlat Departamenti O’zbekistonni 2006 yildan beri ushbu ro’yxatga kirgazgan bo’lsada, 2009 yildan boshlab norasmiy qonunlarga binoan ularga qarshi hech qanday jazo belgilamagan.

## Tarihdan

O’zbekistonning 1998 yilda chiqqan Ma’naviyat va Diniy dashkilotlar ozodligi bo’yicha qonuni hamma diniy jamoatchiliklarning huquqlarini qattiq cheklaydi va O’zbekiston hukumatiga ularni butunlay boshqarishga yo’l ochib beradi. Bu hol ayniqsa Musulmon jamiyatlarida ko’p uchraydi. Qonunlar qandaydir ravishda dinga sig’inish uchun ozodlik berib dinni qonunlardan ajratsa ham, ro’yxatdan o’tmagan diniy amaliyotlarni jinoiy deb topadi; rasmiylashtirilmagan dinlarning varaqalarini bosmadan chiqarish va ularni tarqatish; viloyatga yetmagan o’smirlarni diniy tashkilotlarda ishtirok etish; va faqat diniy omillarga diniy kiyimlar kiyish ruxsat beriladi. Ko’p diniy guruhlar 13 viloyatlarning sakkiztasida mavjud bo’lgan ro’yxatdan o’tish talablarini bajara olmaydilar. 2010 yilda president Karimov yangi liberal ma’muriy kod elon qildi, lekin inson huquqlar guruhlarining bilishicha ushbu o’zgarishda diniy amaliyotlar uchun jarimalar oshirilgan va yangilari kiritilgan.

## Diniy ozodlik sharoitlari

O’zbekiston diniy ozodlikni buzadi va qaysi dinga mansub bo’lmasin mustaqil diniy amaliyotlarni qattiq - qo’llik bilan jazolaydi. O’zbekiston hukumati Musulmonlarni qamoqlarga tashlashni davom ettirmoqda va qabul qilingan rasmiy usulda sig’inmaga shaxslarni, guruhlarni va masjitlarni ekstremist siyosiy dasturlar ishtirokchisi hisobida jazolaydi. 10 minggacha bo’lgan Musulmonlar, ularning ko’pchiligining ishlari ko’rib chiqilmasdan qiynoqlarga solingan va qamoq yoki  ruhiy kasalxonalarga joylashtirilgan. O’zbekiston diniy guruhlar tahdid ostida bo’lsada hukumat mantiqsiz bo’lgan noaniq qomunlarni dinga sig’inuvchilarga va hech qanday xatarsiz shaxslarga qo’llamoqda.

***Ektremizm qonuni ko'rinishi***: Oxirgi ikki o'n yillik davomida, hukumat dinning davlat tomonidan boshqarilishiga qarshi bo'lgan, tahminan 10 ming Musulmonlarni ushlab 20 yilgacha bo'lgan muddatlarga qamoqqa solgan. Hukumatning ayblashicha qamoqdagilarning ko'pchiligi ekstremist guruhlar bilan aloqador, va ularni keng tariqada Vahobiylar, yoki, keyingi paytlarda paydo bo'lgan Jihodiylarga ta'luqli deb ayblaydi. Vakolatchilar ushbu tushinchani keng qilib olganda ko'pchilik Musulmon shaxslarga va guruhlarga, va rostakasim ekstremistlarga, siyosiy raqobatchilarga, boshqa mamlakatlarda ta'lim olgan shaxslarga va boshqalarga qo'llaydi.

***2005 yil Andijondagi namoyish va uning natijasi:*** 2005 yil may oyida, *Akromiylar* guruhiga a'zolikda ayblab 23 tadbirkorning sudi natijasida ko'tarilgan, asosan tinch namoyishchilarni daxshat bilan norozilik harakatlarini bostirgan. O'zbekcha harakat 1 minggacha aholini o'ldirdi; ushbu hujumdan so'ng O'zbekiston hukumati mustaqil Musulmonlar, inson huquqlarini himoyalovchi faollar, jurnalistlar va namoyishda qatnashishi mumkin bo'lgan shaxslarni bostirishda harakatini kuchaytirdi. O'zbekiston inson huquqlari guruhiga qaraganda, "Andijonda haqiqat va tiklanish" ishlari jarayonida qamoqdagi Andijon voqealariga ta'luqli bo'lgan 241 mahbusning 10 tasi halok bo'lgan. O'zbekiston hukumati haligacha ushbu voqealarga aloqador, yoki shu borada qandaydir ma'lumotga ega bo'lgan insonlarni qamqlarda saqlamoqda va boshqa mamlakatlardan Andijon voqealaridan keyin qochib ketgan o'zbekistonlik qochoqlarni qaytarilishini talab qilmoqda. Ular orasida UNHCR ostida muhofaza qilingan shaxslar ham bor.

***Mahbuslik sharoitlari:*** O'zbekiston "Ezgulik" inson huquqlarini himoyalovchi guruhning 2011 yilgi hujjatlariga asosan ko'pgina ayollar qiynoq ostiga olingan, ularning ko'pchiligi dinga sig'inganlari uchun qamalganlar. O'zbekiston hukumatining va'dalariga qaramay hanuzgacha qamoqlarda, sud oldi jarayonidagi xonalarda, militsiyaxonalarda va havfsizlikni saqlash zonalarida qiynoqlar juda keng tarqalgan. Ma'lum bo'lishicha, shu qiynoqlar qo'rqitish, jismoniy og'riq berish, jinsiy zo'rlash, zulm ostidagi insonning nafas yo'lini to'sib qoyish uchun niqoblar kiygazish va juda sovuq xonalarda saqlash bilan olib borilar ekan. Qiynashlar asosan kattalarni va yo'sh bolalarni o'z dinidan qaytarish yoki ularni ayblarni bo'yniga oldirish uchun va boshqalarga ayb yuklash uchun qo'llaniladi. Aybdor deb topish yuz foyiz aybni tan olish bilan chiqariladi, va tan olish ko'pincha qiynoq bilan amalga oshiriladi. 2012 yilning iyun oyida BMTning Qiynoqqa qarshi qo'mitasi (CAT) O'zbekistonni qo'pol, daxshatli va keng ravishda inson huquqlarini paymol qilayotganini aniqladi. Ularning ichida g'ayriinsoniy, shavqatsiz va berahm munosabat… bu munosabatlar ayniqsa rasmiy qabul qilingan dindan boshqa dinga ishonadigan insonlar uchun juda qattiq.

Hisobot vaqti o'tgandan so'ng, Qizil xoch va qizil yarim oy jamiyati xalqaro qo'mitasi O'zbekiston ma'muriyatining birga ishlash xohishi bo'lmagani uchun mamlakatdagi ishini to'xtatishini elon qilgan.

***Musulmonlarga qarshi taqiqlar:*** O'zbekiston hukumati Islomiy tashkilotlarni qattiq nazorat qiladi va mustaqil iymonni ta'qiqlaydi. Farg'ona vodiysi din borasida eng faol viloyat hisoblanadi. Hukumat shu viloyatda nir necha masjitlarni olib qo'ydi va yo'sh bolalarning u yerlarga borishini qa'qiqlab qo'ydi. Hukumat tomonidan boshqariladigan Musulmonlar diniy qo'mitasi darslar va uchrashuvlar, imomlarni saylash va ishdan olishni boshqaradi va yig'ilishlarda nimalar haqida gapirilganini va Islomiy ko'rgazmalarni nazorat qiladi. Shunday

bo’lsada, hamma harakatlarga qaramay, elon qilinishicha mamlakatdagi ro’yxatdan o’tgan masjitlar to’liq ravishda ishlab kelmoqda. 2012 yilning fevral oyida o’zbekistonlik yetakchi imom Shvedsiyadan siyasiy boshpana olgan. U suyiqasd qilinishi ostida bo’lgan.

***Musulmon bo’lmagan shaxslarga qo’yilgan ayblar:*** O’zbekiston ko’pincha Evenjelik Protestant va Jehovah’s Witnesses dinidagi shaxslarni davlat belgilagan tartiblardan tashqarida ish olib borganligi uchun ularni ekstremistlar qatoriga qo’shadi. Ular noqonuniy diniy faoliyatlar ko’rsatganliklari uchun, masalan, shaxsiy diniy sig’inish uchrashuvlarda qatnashganlari uchun kamsitish, qo’lga olinish va qamoqqa olinishga duch keladilar. Davlat vakillari ro’yxatdan o’tgan va o’tmagan Nasroniy va Bahaya guruhlarining uchrashuvlariga bostirishda davom etmoqdalar. Davlat tomonidan boshqariladigan ommaviy axborot vositalari ozchilikda bo’lgan diniy guruhlarni noo’rin yomonlab ularning missiyonerlarini diniy ekstremistlarga aloqador qilib ko’rsatmoqdalar.

***Diniy yozma ko’rsatmalarga qarshi ta’qiqlar:*** Diniy ishlar bo’yicha kengash (CRA) hamma diniy yozma ko’rsatmalarni tekshiradi. Diniy qonuq tarafidan ruhsat etilmagan diniy yozma ko’rsatmalarni boshqa mamlakatlardan olib kelish, saqlash va tarqatishni man etadi. Davlatning man etilgan xalqaro websaytlar ro’yxati bor. Ularning ko’pchiligi inson huquqlarini saqlash va diniy ozodlik haqida. USCIRF 2012 – 2013yillar davomida militsiya tomonidan noqonuniy diniy qo’lyozmalar saqlagani uchun tekshirilgan 37 nafar shaxslardan bayonot olgan.

***Diniy ko’rgazmalarga qarshi ta’qiqlar:*** Davlat diniy ta’limni qattiq man qiladi. Faqat oltita ro’yxatdan o’tgan diniy jamoalarning sakkiz qonuniy ro’yxatdan o’tgan bo’limlari bor. Faqat ular diniy ta’lim berishga rasman qonunga ega. Undan tashqari, diniy ta’lim berish faqat ayrim davlat tomonidan ruxsat berilgan maktablarda, ayrim ruxsat berilgan muallimlar tomonidan berilishi mumkin: shaxsiy dars berish man qilingan va unga qarshi jazo beriladi. Davlat diniy maqsaddagi xalqaro sayohatni ham ta’qiqlab qo’ygan va shunday sayohatlardan cheklangan shaxslarning ro’yxati mavjud.

## AQSh dasturiga tavsiyalar

Tashvishli joyi shundaki, AQSh O’zbekistonni Shimoliy bilan ulovchi yo’li (NDN) strategik jihattan zarur qismi va AQSh va NATO kuchlari uchun Afg’onistonga yo’l sifatida biladi. 2003 yilning OZODLIKNI qo’llash tadbiri bo’yicha, Davlat department kotibi O’zbekiston inson huquqlarini himoya qilish borasida katta yutuqlarga erishganiga, ko’p partiyali tizim tuzishiga, ozod va adolatli saylovlar o’tkazilishiga guvohlik bermagunicha O’zbekiston markaziy davlatga yo’rdam ko’rsatishni man qilgan. 2008 yilda, Kongres 2005 yil may oyidagi fojiyalarda aybdor deb bilingan yoki inson huquqlarini paymol qilayotgan O’zbekiston davlat rasmiylarini Amerika Qo’shma Qhatatlariga kirishini man etgan. 2010 yil, Kongres Xalqaro harbiy ta’lim va tarbiya (IMET) dasturlarini oddiy aholidan tashkil topgan harbiylar aloqasi va harbiy adolat tarzida kengaytirdi. 2012 yil, Davlat departamenti vaqtincha qo’llanilgan harbiy yordam ta’qiqini bekor qilib milliy chegaralarni himoya qilish uchun O’zbekistonga yo’rdam berishni davom ettirishga ko’rsatma berdi. Uning ichiga chegara qo’shinlari va harbiy uskunalar kiradi. Davlat departamentining inson huquqlarini himoya qilish borasidagi bayonatnomasiga qaramay, uning ichiga qattiq diniy cheklanishlar, doimiy qiynoqlar va 2005 yildagi Andijon fojiyasini mustaqil

teshrish o’tkazilmaganligi kiradi, ta’qiqlar olib tashlandi. Qo’shimcha qilib aytganda, O’zbekistonni CPC deb belgilashning o’rniga, AQSh davlati quyidagilarni qilishi lozim:

- 2009 yilda qabul qilingan CPCni olib tashlash, ta’qiqlarni kuchaytirish, uning ichida O’zbekiston rasmiylarining AQShaga sayohatini man etish;

- AQSh bayonotnomalari va amaliyotlari hamma agentlikgarga yetkazilishini ta’minlash, inson huquqlarini himoya qilish bayonotnomalari jamoaga yetkazilishi va O’zbekiston davlati bilan shaxsiy muzokaralar;

- Oz’bekiston davlati diniy ozodlikni amalda ishlatganida va xalqaro inson huquqlarini saqlash standartlariga rioya qilganidan keyin AQSh gumanitar va inson huquqlarini himoya qiluvchi dasturlarda yordam berishi kerak;

- BMTning Inson huquqlarini himoya qilish kengash undash uchun boshqa mamlakatlar bilan birgalikda O’zbekistonda inson huquqlarini saqlashni tekshirish va inson huquq sharoyitlarini qat’iy qarorlar bilan yaxshilashi kerak;

- O’zbekistonni 1998 yilda qabul qilgan diniy qonunidan bosh tortishga va uni xalqaro standartlarga tenglashtirishni kerak; va

- O’zbekiston davlatini 2005 yilgi voqealarni tekshirish uchun mustaqil xalqaro tekshiruvga ruhsat berishga maslahat qilish kerak.

# MAHBUSLAR RO'YXATI —O'ZBEKISTON

| Kodeks | Ta'rif | Qo'yilgan ayblar soni |
|---|---|---|
| 159 | Konstitutsiyaga qarshi harakat | 8 |
| 216 | Noqonuniy jamiat yoki diniy tashkilot tuzish | 18 |
| 241 | Jinoyat haqida ma'lumot bermaslik yoki uni yashirmish | 1 |
| 244-1 | Aholiga havf tug'diradigan va jamoani bezovta qiladigan materiallarni bosmadan chiqarish va ularni tarqatish | 10 |
| 244-2 | Diniy ektremist, separatist, fundamental yoki man etilgan tashkilotlar tuzish, ularni boshqarish va ularda qatnashish | 13 |

| O'zbekistonda Musulmon dini harakatlarida qatnashgani uchun yoki unga aloqador bo'lgani uchun qo'lga olingan/qamalgan shaxslarning ro'yxati.<br>Nodavlat tashkilotning 2012 yil aprel – 2013 yil yanvar bayonoti | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | **Ism sharifi** | **Ayblangan, qo'lga olingan yoki qamalgan kuni** | **Sud manzilgohi** | **Kriminal kodeksning bo'limi** | **Jazo** |
| 1. | Nosirova Dinara Abdurashadovna | Hukm qilindi: 7 yanvar, 2013 | Toshkent oblasti | 159, 216, 244-1, 244-2[i] | 8.5 yil |
| 2. | Soipov Abdurakhim Turgunovich | Hukm qilindi: 7 yanvar, 2013 | Toshkent oblasti | 159, 216, 244-1, 244-2 | 18 yil |
| 3. | Askarov Obydkhon Abdurasilovich | Hukm qilindi: 7 yanvar, 2013 | Toshkent oblasti | 159, 216, 244-1, 244-2 | 12 yil |
| 4. | Kulbekov Riskul Tursunmuradovich | Hukm qilindi: 7 yanvar, 2013 | Toshkent oblasti | 159, 216, 244-1, 244-2 | 10 yil |
| 5. | Salmatov Farkhod Nabievich | Hukm qilindi: 7 yanvar | Toshkent oblasti | 159, 216, 244-1, 244-2 | 10 yil |
| 6. | Yusupov Furkat Kocimovich | Hukm qilindi: 7 yanvar, 2013 | Toshkent oblasti | 159, 216, 244-1, 244-2 | 10 yil |
| 7. | Muminova Shokhida Abdumazkidovna | Hukm qilindi: 7 yanvar, 2013 | Toshkent oblasti | 159, 216, 244-1, 244-2 | 8 yil |

# MAHBUSLAR RO'YXATI —O'ZBEKISTON

| O'zbekistonda Musulmon dini harakatlarida qatnashgani uchun yoki unga aloqador bo'lgani uchun qo'lga olingan/qamalgan shaxslarning ro'yxati.<br>Nodavlat tashkilotning 2012 yil aprel – 2013 yil yanvar bayonoti | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | **Ism sharifi** | **Ayblangan, qo'lga olingan yoki qamalgan kuni** | **Sud manzilgohi** | **Kriminal kodeksning bo'limi** | **Jazo** |
| 8. | Yusupova Mukarram Kosimovna | Hukm qilindi: 7 yanvar, 2013 | Toshkent oblasti | 159, 216, 244-1, 244-2 | 8 yil |
| 9. | Obidov Odilzhon | Hukm qilindi: 21 yanvar, 2013 | Toshkent | 244-2[ii] | 8 yil |
| 10. | Nizamutdinov Fazliddin | Hukm qilindi: 21 yanvar, 2013 | Toshkent | 216 | Eng kichik maoshdan 100 marta (~$3600) |
| 11. | Ushmukhamedov Davron | Hukm qilindi: 21 yanvar, 2013 | Toshkent | 216 | Eng kichik maoshdan 100 marta (~$3600) |
| 12. | Zokirov Davronzhon | Hukm qilindi: 21 yanvar, 2013 | Toshkent | 216 | Eng kichik maoshdan 100 marta (~$3600) |
| 13. | Khazhiev Adkham | Amnistiya berildi: 21 yanvar, 2013 | Toshkent | 241 | Amnistiya berildi |
| 14. | Khusanov Gairat | Hukm qilindi: 22 noyabr, 2013 | Yangibozor tumani | 244-1 | 7 yil |
| 15. | Yunusov Shykhrat | Hukm qilindi: 22 noyabr, 2013 | Yangibozor tumani | 244-1 | 7 yil |
| 16. | Ikromov Botir | Hukm qilindi: 22 noyabr, 2013 | Yangibozor tumani | 216 | 3 yil probatsiya |
| 17. | Rakhimboev Alisher | Hukm qilindi: 22 noyabr, 2013 | Yangibozor tumani | 216 | 3 yil probatsiya |
| 18. | Oripov Otabek | Hukm qilindi: 22 noyabr, 2013 | Yangibozor tumani | 216 | 3 yil probatsiya |
| 19. | Miraliev Muzaffar | Hukm qilindi: 22 noyabr, 2013 | Yangibozor tumani | 216 | 3 yil probatsiya |
| 20. | Salimov Dilshod | Hukm qilindi: 22 noyabr, 2013 | Yangibozor tumani | 216 | 3 yil probatsiya |

# MAHBUSLAR RO’YXATI —O’ZBEKISTON

| O’zbekistonda Musulmon dini harakatlarida qatnashgani uchun yoki unga aloqador bo’lgani uchun qo’lga olingan/qamalgan shaxslarning ro’yxati. Nodavlat tashkilotning 2012 yil aprel – 2013 yil yanvar bayonoti | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | **Ism sharifi** | **Ayblangan, qo’lga olingan yoki qamalgan kuni** | **Sud manzilgohi** | **Kriminal kodeksning bo’limi** | **Jazo** |
| 21. | Mykhammedov Fazliddin | Hukm qilindi: 22 noyabr, 2013 | Yangibozor tumani | 216 | 3 yil probatsiya |
| 22. | Abdiev Khasan | Hukm qilindi: 22 noyabr, 2013 | Yangibozor tumani | 216 | 3 yil probatsiya |
| 23. | Nurmatov Shovkatzhon Abdumannopovich | Qamalgan: 5 noyabr, 2012 | Toshkent oblasti | Ayblanmagan | 14 noyabr, 2012 yilda qamoqda o’lgan |
| 24. | Khorunov Abdurashid | dekabr 26/29, 2012 | Toshkent oblasti | 244-2 | Kutilmoqda |
| 25. | Tadzhibaev Shukhrat | dekabr 26/29, 2012 | Toshkent oblasti | 244-2 | Kutilmoqda |
| 26. | Karimov Bobur | dekabr 26/29, 2012 | Toshkent oblasti | 244-2 | Kutilmoqda |
| 27. | Karimov Akhmadzhon | dekabr 26/29, 2012 | Toshkent oblasti | 244-2 | Kutilmoqda |

---

[i] Nosirova Dinara Abdurashadovna, Soipov Abdurakhim Turgunovich, Askarov Obydkhon Abdurasilovich, Kulbekov Riskul Tursunmuradovich, Salmatov Farkhod Nabievich, Yusupov Furkat Kocimovich, Muminova Shokhida Abdumazkidovna, va Yusupova Mukarram Kosimovna kodeksning 159, 216, 244-1, va 244-2 bo’limlarini buzgan. Ular Vahobiylar mazhabiga a’zo bo’lganlikda ayblanganlar.

[ii] Obidov Odilzhon, Nizamutdinov Fazliddin, Ushmukhamedov Davron, Zokirov Davronzhon, va Khazhiev Adkham “Turkiston Islomiy Harakati” ga a’zolikda ayblangan.